

PROFESSIONAL TA'LIM ASOSIDA PEDAGOG KADRLARNI KASBIY PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISH

Baymatova Umida Sapilayevna

*Chirchiq oly tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti Qo'shinlar kundalik faoliyati
va qo'shnlarni boshqarish kafedrasi katta o'qituvchisi, dotsent*

Annotatsiya: Professional ta'lism pedagog kadrlarni kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlanirishda rasmiy, norasmiy ta'lism shakllarini qo'llashning didaktik imkoniyatlarini va o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqola professional ta'lism asosida pedagog kadrlarni kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlanirish masalalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Professional ta'lism, pedagog, kasbiy-pedagogik kompetentlik, didaktik imkoniyat, o'quv-uslubiy ta'minot, zamonaviy yondashuv, pedagog kadr, uzluksiz rivojlanish.

Dunyoni idrok etish va talqin etishning yangi usullari, madaniy, ijtimoiy jarayonlaring tez o'zgaruvchanligi, texnologiya, raqamlashtirish, hayotning ko'plab sohalarini robotlashtirish, zamonaviy ijtimoiy sharoit va o'zgarishlar ta'lism tizimi oldiga yangi paradigmalarini joriy qilish, zamonaviy ta'lism tendensiylariga mos ravishda ta'lism sifatini takomillashtirib borishni taqazo etadi. Kattalar ta'limgining rivojlanishiga YuNESKOning ta'lism bo'yicha xalqaro komissiyasi tomonidan hayot davomida uzluksiz ta'lism olishning asosiy tamoyillarini ya'ni, "anglashni o'rganing", "amalga oshirishni o'rganing", "birgalikda yashashni o'rganing", "yashashni o'rganing" kiritilishi asos bo'ldi. Bunda, yangi ta'lism dasturlarini yaratishga, ta'lism sifatini ta'minlashda yangicha yondashuvlarga, ta'lism-tarbiyaning yangi shakllarini joriy qilishga qaratilgan ta'lism siyosatini va paradigma-sini, hozirgi kunga qadar mavjud bo'lgan konsepsiyasini o'zgartirish zaruriyati tug'ildi. Shu bois, YUNESKO tomonidan ta'lism xizmatlarini tashkil etishning turli darajalarini aks ettiruvchi rasmiy, norasmiy va informal ta'lism shakllarin kiritildi. Endilikda hayot davomida uzluksiz ta'lism olishda individual ta'lism olish traektoriyasini loyihalash, kasbiy rivojlanish va malaka oshirish ta'limgining jozibadorligini ta'minlashda rasmiy, norasmiy va informal ta'limgining didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni pedagogik jihatdan asoslash talab etiladi.

Jahon miqyosdagi ta'lism sifatiga qo'yilayotgan talablardan biri XXI-asr pedagogikasini yangi paradigmalar hamda raqamli ta'lism transformatsiyasi asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Chuqur kasbiy bilim, undan unumli foydalanish ko'nikmalari, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik, mustaqillik har doim pedagog faoliyatini alohida ajratib turgan bo'lsa, XXI-asr pedagogi uzluksiz ta'lism

olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda yangi professional ta’lim uchun pedagoglarni tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va axborot-metodik imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shuningdek, “Hayot davomida ta’lim olish” tamoyili asosida pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish, ta’limning maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonini tashkil qilish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish uchun ta’lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy yangilab borish masalalarga e’tibor qaratildi [1]. Shu nuqtai nazardan professional ta’lim pedagog kadrlarni kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishda rasmiy, norasmiy ta’lim shakllarini qo’llashning didaktik imkoniyatlarini va o‘quv-uslubiy ta’minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Globallashgan dunyo “yangi bilim va kompetensiyalar davri”ga qadam qo‘ydi, buning natijasida jamiyat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda chuqur o‘zgarishlar yuz berdi. Kompetensiyalarga asoslangan iqtisodiyot va jamiyatga muvaffaqiyatli o‘tish mamlakat taraqqiyoti va ravnaqi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan “hayot davomida ta’lim olish” bilan bevosita bog‘liqligi anglashilmoqda.

Bugungi kun tushunchasidagi kattalar ta’limi rivojlanishi yoki uzluksiz ta’lim olish XXI-asrdagi tezkorlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini barcha sohalarin egallashi, ta’limni raqamlashtirilishi natijasida fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o‘zgarishlar oqibati bilan bog‘liq.

Katta yoshlilar ta’limi jarayonining o‘ziga xos jihatlaridan biri bu o‘zlashtirilayotgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar tizimining kasbiy yoki hayotiy jarayonda o‘z o‘rnini topishga qaratilganligining ongli ravishda anglanishi, maqsadning aniqligi, o‘qish-o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaning kuch-liligi bilan tavsiflanadi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘ziga xos differansial yondashuv, andragogik tamoyillar, zaruriy pedagogik shart-sharoitlar hamda o‘qitish texnologiyala-rini talab etadi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-sod “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni respublikada kasb-hunar ta’limini modernizatsiyalashda muhim ahamiyatga ega. Farmonda 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasida ta’limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqa lashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etish vazifasi belgilab berildi [3]. Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish esa professional ta’lim muassasalari pedagog kadrlarni kompetensiyaviy yondashuvlar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini oshishi tabiiydir. Bu jarayonda kasbiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va paradigmalarini o‘rganish, malaka oshirishning muqobil shakllarni joriy qilishda xorijiy tajribalarni tahlil qilish,

to'ldiruvchi va qo'shimcha ta'limga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan ehtiyojga asoslangan kurslarni, qisqa muddatli kurslarni ishlab chiqish metodikalarini o'rganish nihoyatda zarur.

Ma'lumki, pedagogik tadqiqotning metodologiyasini ishlab chiqish pedagogik hodisa va jarayonlarning tadqiqot ob'ekti sifatidagi xususiyatlarini aniqlashdan boshlanadi. Bunda o'quv jarayonini boshqaruvchi pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimi butunlay alohida pedagogik reallik hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim olish to'g'risidagi ilk g'oyalarni faylasuf olimlar Suqrot, Aflatun, Aristotel va Senekanning insonning doimiy ravishda ma'naviy takomillashuvi haqidagi diniy-falsafiy tasavvurlarida va ilmiy asarlaridan hamda muqaddas islom dinimizda, xadisi shariflarda ham uchratishimiz mumkin. Jumladan, "beshikdan to qabrgacha ilm izla" degan xadisda ham hayot davomida ta'lim olish mazmuni aks ettirilgan. Uzluksiz ta'lim g'oyasining paydo bo'lishi o'z navbatida, bir tomondan pedagogik konsepsiya sifatida, boshqa tomondan esa, amaliyotning natijasida paydo bo'lgan [4].

Ta'lim tarbiya berish, umr davomida ta'lim olish masalalarining uzoq tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy asarlarida ham aks etgan.

Abu Nasr al Farobiy "Namunali ta'lim" risolasida ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materialni yaxshi yo'sinda bayon qilish masalasiga alohida to'xtalib, Kishi bilim va tajriba orttirmasdan oldin juda ko'p narsalarni nazarga ilmaydi, bilim egallab, tajriba hosil qilgach, haligi narsalarga qarashini o'zgartiradi, avval behuda deb hisoblovchi narsalarning zaruratligini his etadi, ilgari e'tiborini tortmagan narsa endi aksincha uni hayratga soladi".

Farobiy "Baxt – saodatga erishuv to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvchi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhumdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarini o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim [5].

Mahmud Qoshg'ariy, o'zining "Devonu lug'otit turk" ("turkiy so'zlar to'plami") nomli asarida "Ilmlı Aqlli odamlarga yaxshilik qilib, so'zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o'rganib, amalga oshir", – deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi, ilm va hunar sohiblarini e'zozlaydi, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi.

Abu Rayhon Beruniy o'quv jarayonida pedagog quyidagi didaktika prinsiplariga qat'iy amal qilishi lozimligini ta'kidlaydi:

ta'lim oluvchini zeriktirmasligi;
bilim berishda turlilikka asoslanishi;
uzviylikka, tizimlilikka, izchillikka va mantiqiylikka rioxasi qilishi;
yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etishi va h.k. Shuningdek,
Ibn Sinoning ilmiy bilimlarni egallash usullari va yo'llari, ta'lim oluvchilarini sinf-dars
shaklida o'qitish haqidagi didaktik prinsiplari muhim ahamiyatga egadir:

- ta'lim oluvchini bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- o'qitishda jamoa (sinf) bo'lib o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda ilm o'r ganuvchilarining qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish va h.k. [6].

Tadqiqot ishi doirasida zamonaviy ta'limda professional ta'lim pedagogining
uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlarini tahlil qilish va uzluksiz ta'lim olish paradigmalarini
o'r ganishni bиринчи darajali vazifa sifatida belgilab oldik.

XXI-asr pedagogikasi esa zamonaviy dunyoda bu xislatlarning yetarli emasligi,
endilikda tafakkurni rivojlantirish, kreativ makon, muhit, kreativ shaxs, kreativ
mahsulot yaratishga bo'lgan ehtiyoj asosida ish tutish lozimligini uqtirmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Barkamol avlod orzusi. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2000, - 417 b.
2. Barkamol avlodni tarbiyalashda past saviyali «sommaviy madaniyat» salbiy
ta'sirining oldini olish. Ma'ruza matni. / Mualliflar jamoasi. –T., 2013.
3. Sh.Mirziyoyev. Xavfsizlik kengashi majlisidagi “Qurolli kuchlarimiz –
mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” mavzusidagi
nutqi. //—Xalq so'zi gazetasi. 2018 yil, №3.
4. Muxtarov A. Shaxs tarbiyasida milliy g'oya, ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligi. –
Toshkent: Yangi asr avlod, 2003.
5. Xayrullayev M. M., O'rta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994
6. Xayrullayev M. M., Uyg'onish davri va Shark mutafakkiri, T., 1971